

**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI RAHBARLARINING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HOLATLARI**

**Sobirova Umida Abdughalim qizi**

Xalqaro Nordik universiteti

2-bosqich magistranti

**ANNOTASIYA:** *Maqolaning asosiy mavzusi O'zbekiston Respublikasida ta'limgiz tizimida rahbarlarning ijtimoiy-psixologik holatlarning o'ziga xos yo'nalishini ochib berish va uni asosiy maqsadi faqat va faqat jamiyat uchun ekanligini yoritib berishdan iboratdir. Shu maqsadda ta'limgiz tizimidagi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik holatlari natijasida kelib chiqayotgan natijalari amaliy jarayonlarni respublikamiz hududida qanchalik darajada rivojlanishini ilmiy tatqiq qilishdir.*

**Kalit so'zlar:** *rahbar, maktab, ta'limgiz, o'quvchi, amaliyot dafatari, kompetentlik, ilmiy rahbar, ijtimoiy-psixologik, ta'limgiz tizimi.*

Uzoq tarixiy o'ziga xos taraqqiyotning barcha davrlarida va bosqichlarida sifatli, samarali va to'g'ri tashkil qilingan boshqaruvga yoki ta'limgiz sohasining rivojlanishiga muhtojlik yaqol ko'zga ko'ringan. Barehamizga ma'lumki, ta'limgiz tizimini rivojlanishi har qanday yo'nalish va sohani ravnaq topishiga olib keladigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Chunki azal-azaldan davlat va jamiyatning barcha tarmoqlari, sohalari hamda yo'nalishlarni rivojlanishning asosi bo'lgan ta'limgiz tizimiga e'tibor qaratib kelinganligi sababli dunyoda qolaversa, mamlakatimizdan buyuk-buyuk olimlar, yozuvchilar, allomalar, mutafakkirlar, sarkardalar yetishib chiqib asrlar osha milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz va urf odatlarimizni dunyo hamjamiyati oldida yorqin namuna sifatida ko'rsata olganlar. Ilm-fan va zamонавиу texnologiyalar taraqqiy etib rivojlangan sari yuqori darajadagi kompetentlikka ega bo'lgan ta'limgiz tizimi rahbarlariga ehtiyoj tug'iladi bormoqda. Ayni paytda ta'limgiz tizimini yanada takomillashtirish uchun har tomonlama boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega rahbar kadrlarni tayyorlab ularni boshqaruv jarayonlariga jalb qilish maqolamiz mavzusini jamiyat hayoti uchun naqadar dolzarb mavzu ekanligidan dalolat beradi. Bunda boshqaruv psixologiyasi, ta'limgiz tizimini boshqarish muammolari, O'zbekistonlik va xorijiy izlanuvchilarning ko'plab tadqiqotlari predmeti bo'lib hizmat qilmoqda. Boshqaruv jarayonlarini o'ziga xos ilmiy, falasiy jihatlari Sharq olimlari tomonidan o'r ganilgan. Shu bilan birga boshqaruvchanlik jarayonlarining rahbar kadrlar orqali vukudga keladigan psixologik xususiyatlari ko'plab Sharq mutafakkirlari asarlarida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan shu o'rinda, ushbu fikrlar borasidagi Abu Ali ibn Sinoning ko'plab asarlarida fikrlar mavjud bo'lib, ushbu davrning g'oyalar bilan rivojlantirildi. Ibn Sino rahbar xalqsiz bo'la olmaganidek, xalq ham rahbarsiz bo'la olmaydi, deb hisoblaydi. U o'zining XI asrdagi davlat boshqaruviga va oila xo'jaligi tizimiga oid asari «Uy xo'jaligi to'g'risida»gi traktatida boshqaruv ilmiga alohida to'xtalib, uni insondan juda katta aql, iroda va mehnat talab etuvchi juda muhim ilm deb hisoblashini yozib qoldirgan. «Insonlar jamoa

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

bo‘lib, yashashlari uchun o‘zaro muloqotda, turli munosabatda bo‘lishlari, birlarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishlari va umumiy intilish, maqsadga ega bo‘lishlari lozim”<sup>1</sup> deb Abu Ali ibn Sino fikirlarini bildirib o‘tgan.

Mustaqillik yillarida esa zamonaviy psixologik yondashuvlar saosida bir qancha olimlar izlanishlar olib borishdi. Xususan, mamlakatimizda bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borgan psixolog olim G‘.B.Shoumarov rahbar o‘z qo‘l ostidagi xodimlar bilan asosan uch xil maqsadda muloqotga kirishadi, ya’ni buyruq, ko‘rsatma berish, nimanidir taklif qilish, maslahat berish uchun; topshiriqning bajarilganligi haqid «qaytar» (nazorat maqsadida) ma’lumot olish uchun; xodimlarning topshiriqni qanday bajarganligini baholash uchun boshqaruv muloqotiga kirishadi<sup>2</sup>. Shuningdek mamlakatimizning yetakchi olimlaridan E.G‘oziyev mazkur muammoga ko‘p qirrali yondashishga intiladi. Olim boshqaruv sohasidagi tadqiqotlarida munosabatlar psixologiyasi, jamoa rahbarining nufuzi, rahbar tipologiyasi, rahbarning maxsus qobiliyatları, boshqaruv qarorini qabul qilish va boshqalar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni to‘plagan. Uning boshqaruv psixologiyasi faniga qo‘shtan hissasi – bu rahbar tipologiyasi va rahbarlik uslublari mohiyati, majmuasi atroflicha tahlil qilganligidir<sup>3</sup>.

G‘arb olimlaridan ham bir qancha olimlari rahbarlarning ta’lim tizimida ijtimoiy-psixologiyasining ko‘rinishlari bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, Michael Fullan, maktab rahbarligiga oid bir qancha tadqiqotlar olib borib, rahbarlarning psixologik va boshqaruv yondashuvlari ta’sirini o‘rgandi. Fullan o‘zining *“Leading in a Culture of Change”* asarida, maktab rahbarining jamoaga ijobiy ta’sir o‘tkazishchun qanday o‘zgarishlarni yaratishi zarurligini o‘rganadi. Bu tadqiqotda rahbarning jamoa bilan samarali muloqoti, rahbarlik imijining ahamiyati va uning psixologik qibiliyatları haqida batafsil fikrlar mavjud. Rahbarning odob-axloqi va mutaxassisligi uning jamoaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbarning yuqori axloqiy fazilatlari, mas’uliyatli va adolatli qarorlar qabul qilish qobiliyati, xodimlarning ehtiyojlariga e’tibor berishi jamoada rahbarga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Agar rahbar o‘zining professional bilim va ko‘nikmalariga asoslangan holda ish olib borsa, bu uning jamoa oldidagi obro‘sini mustahkamlaydi. Mutaxassislik rahbarning o‘z sohasidagi bilim va tajribasini amalda ko‘rsatishi orqali jamoaga ishonch beradi. Bu esa jamoaning ishga bo‘lgan yondashuvini, motivatsiyasini va samaradorligini oshiradi.

<sup>1</sup> Ruziyev Z.R. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari. Monografiya // Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. Sh.I.Jalilov. – Toshkent.Istiqlol nuri, 2016. – 332 b.;

<sup>2</sup> Shoumarov G‘.B. Rahbar shaxsiga qo‘yligan talablar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003. – 54 b.

<sup>3</sup> . G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zMU, 2012. -328 b.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hayitov O.E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish. Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2020. – 89 b.
2. Hasanova Z.D. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti 2021. – 145 b.3. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Navro'z" nashriyoti, 2020.198 bet.
4. Шепель В.М. Управленческая психология. – М.: Экономика, 1994, - 248 с. 5. Люшников А.Н. Стратегический менеджмент. – М.: «Юнити-дана», 2001. – 421 с.
6. Алишер Гаффарович Муминов. Ўзбекистонда таълим тизими: ҳолати ва истиқболлари // Academic research in educational sciences. 2022. №TSTU Conference.1.URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-talim-tizimi-olati-va-isti-bollari> (дата обращения: 11.11.2023).
7. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. T.: Unaks-print, 2005. 211-b.

